



<https://doi.org/10.36078/987655573>

Received: April 15, 2026
Accepted: June 23, 2026
Available online: June 25, 2026

Review article / Sharh maqola

TRENDS IN THE STUDY OF THE SINCLAIR LEWIS PHENOMENON IN WORLD LITERARY STUDIES

Aziza AKHMEDOVA

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Uzbekistan State World Languages
Tashkent, Uzbekistan
Email: eternalworldlanguages@gmail.com
ORCID iD: 0009-0003-1792-2909

ABSTRACT

This study reviews scholarly research on the works and literary heritage of Sinclair Lewis. Its main aim is to analyze the artistic features of S.Lewis's writings, his socio-critical views, and academic studies devoted to his work. The study also highlights his contribution to American realism and the representation of social issues in his novels.

The objectives include examining scholarly sources on S.Lewis's life and literary activity, identifying the central ideas of his major novels, comparing critical interpretations, and determining the significance of his works in world literature. Analytical, comparative-typological, and descriptive methods were employed. Through these approaches, social issues, human character, and the spiritual life of American society portrayed in novels such as *Main Street*, *Babbitt*, and *Arrowsmith* were examined. Biographical, psychobiographical, historical-comparative, psychological, psychoanalytic, intertextual, and descriptive-analytical methods were also used in the study of his literary heritage.

Research on S.Lewis's works can be divided into three major groups. The first focuses on his social mastery, including his portrayal of historical reality, journalism, socio-political ideas, and anthropological, cultural, and philosophical views. The second examines his poetic and artistic mastery, emphasizing his realism, satire, characterization, and compositional techniques in different literary genres. The third includes biographical and bibliographical studies dedicated to his life and works. The existence of more than ten biographies devoted to Lewis highlights the lasting scholarly interest in his literary legacy.

The findings show that S.Lewis was one of the leading writers who realistically depicted the social problems of his time. His works reveal issues such as materialism, spiritual crisis, and individual freedom in American society. They continue to serve as an important subject of research in both American and world literary studies.

Key words: realism, social criticism, novel, Sinclair Lewis, social novel, twentieth-century literature, poetics, artistic creativity.

For citation:

Akhmedova, A. (2026). Trends in the study of the Sinclair Lewis phenomenon in world literary studies. *Philology Matters*, 56(2), 94–109. <https://doi.org/10.36078/987655573>.



JA'HON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA SINKLER LYUIS FENOMENINING O'RGANILISH TENDENSIYALARI

Aziza AXMEDOVA

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot Sinkler Lyuis ijodi va uning adabiy merosi haqidagi ilmiy tadqiqotlar sharhiga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi S.Lyuis asarlarining badiiy xususiyatlari, ijtimoiy-tanqidiy qarashlari hamda yozuvchi ijodi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, adibning Amerika realizmi rivojiga qo'shgan hissasi va uning asarlarida jamiyat muammolarining aks ettirilishi yoritilgan.

Tadqiqot vazifalari sifatida S.Lyuis hayoti va ijodiga oid ilmiy manbalarni o'rganish, yozuvchining mashhur romanlaridagi asosiy g'oyalarni aniqlash, adabiy tanqidchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni qiyosiy tahlil qilish hamda uning asarlarining jahon adabiyotidagi o'rni belgilash ko'zda tutilgan. Tadqiqot davomida tahliliy, qiyosiy-tipologik va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida yozuvchining "Asosiy ko'cha" ("Main Street"), "Bebbit" ("Babbitt") va "Errousmit" ("Arrowsmith") kabi asarlaridagi ijtimoiy muammolar, inson xarakteri va Amerika jamiyatining ma'naviy hayoti tadqiq etildi. Adib ijodiga bag'ishlangan ishlarni o'rganishda biografik, psixobiografik, tarixiy-qiyosiy, psixologik, psixoanaliz, intertekstual, tavsifiy-tahliliy metodlar qo'llanildi.

S.Lyuis ijodiy merosiga doir tadqiqotlarni shartli ravishda uch yirik guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhni ijodkorning ijtimoiy mahoratiga oid kuzatuv va tahlillar tashkil etadi. Bunda S.Lyuisning tarixiy haqiqatni badiiy ifodalash mahorati, publitsistikasi, ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, antropologik, kulturologik, falsaviy-ekzistensial qarashlari diqqat markazida bo'lgan. Yozuvchining poetik mahorati ikkinchi guruh tadqiqotlarga tegishli bo'lib, adibning realist sifatidagi o'ziga xosligi, satirasi, xarakter yaratish mahorati, katta va kichik epik janrlardagi asarlarining kompozitsion o'ziga xosliklari o'rganilgan. Uchinchi guruh ilmiy ishlarga S.Lyuisning ijodiga oid biografik va bibliografik ishlarni sanab o'tish mumkin. Adibning hayoti va adabiy merosiga oid o'ndan ortiq biografiyalarning mavjudligi ahamiyatga molik.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, S.Lyuis o'z davridagi ijtimoiy muammolarni realistik usulda tasvirlagan yirik adiblardan biri ekanligi aniqlandi. Uning asarlarida Amerika jamiyatidagi moddiylikka intilish, ma'naviy inqiroz va shaxs erkinligi masalalari chuqur ochib berilgan. Shuningdek, yozuvchi ijodi nafaqat Amerika, balki jahon adabiyotshunosligida ham muhim ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilayotgani qayd etildi.

Kalit so'zlar: realizm, ijtimoiy tanqid, roman, Sinkler Lyuis, ijtimoiy roman, yigirmanchi asr adabiyoti, poetika, badiiy ijod.

ТЕНДЕНЦИИ ИЗУЧЕНИЯ ФЕНОМЕНА СИНКЛЕРА ЛЬЮИСА В МИРОВОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Азиза АХМЕДОВА

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена обзору научных исследований, связанных с творчеством и литературным наследием Синклера Льюиса. Основная цель работы заключается в анализе

художественных особенностей произведений С.Льюиса, его социально-критических взглядов, а также научных исследований, посвящённых творчеству писателя. Кроме того, рассматривается вклад автора в развитие американского реализма и отражение общественных проблем в его произведениях.

В задачи исследования входят изучение научных источников, посвящённых жизни и творчеству С.Льюиса, выявление основных идей его наиболее известных романов, сравнительный анализ взглядов литературных критиков, а также определение места произведений писателя в мировой литературе. В ходе исследования были использованы аналитический, сравнительно-типологический и описательный методы. С помощью данных методов были исследованы социальные проблемы, особенности человеческого характера и духовная жизнь американского общества, отражённые в таких произведениях писателя, как «Главная улица», «Бэббит» и «Эрроусмит». При изучении научных работ, посвящённых творчеству автора, применялись биографический, психобиографический, историко-сравнительный, психологический, психоаналитический, интертекстуальный и описательно-аналитический методы.

Исследования, посвящённые творческому наследию С.Льюиса, условно можно разделить на три крупные группы. К первой группе относятся наблюдения и анализы, связанные с социальным мастерством писателя. В центре внимания исследователей находились художественное отражение исторической действительности, публицистика Льюиса, его социально-политические идеи, а также антропологические, культурологические и философско-экзистенциальные взгляды. Ко второй группе относятся исследования поэтического мастерства автора, в рамках которых изучались особенности его реалистической манеры, сатиры, искусства создания характеров, а также композиционные особенности произведений крупных и малых эпических жанров. Третью группу составляют биографические и библиографические исследования, посвящённые С.Льюису. Особое значение имеет существование более десяти биографий, посвящённых жизни и литературному наследию писателя.

Результаты исследования показали, что С.Льюис является одним из крупнейших писателей своего времени, реалистически отразивших актуальные социальные проблемы эпохи. В его произведениях глубоко раскрываются вопросы материальных ценностей американского общества, духовного кризиса и свободы личности. Кроме того, установлено, что творчество писателя остаётся важным объектом научного изучения не только в американском, но и в мировом литературоведении.

Ключевые слова: реализм, социальная критика, роман, Синклер Льюис, социальный роман, литература XX века, поэтика, художественное творчество.

KIRISH

Amerika romanchiligining yirik vakili Sinkler Lyuis asarlari jahon adabiyotshunosligida keng o'rganilgan. Shuningdek, S.Lyuisning xarakter yaratish mahorati S.Sherman [Sherman, 1925], A.Kolman, F.Karpenter, L.Richardson, S.Daniel, S.Grebstein [Grebstein, 1962], L.Koard [Coard, 1985], S.Konroy, D.Dyuli, M.M. Xelleberg [Helleberg, 1968], H.Kendi, M.Layt, J.Fisher [Fisher, 1986], B.Makkenna, L.Shafler, M.Buko [Bucco, 1999], D.Simpkins tadqiqotlarining obyekti bo'lgan. Mazkur ishlarda olimlar Sinkler Lyuisning ijtimoiy qarashlari va ijodi orasidagi aloqadorlikni, yozuvchining badiiy obrazlar orqali aks ettirgan falsafiy qarashlarini, qadriyatlar tizimini, ijodkorning realizmidagi o'ziga xosliklarni, badiiy obrazlari tipologiyasi va tadrijini o'rganganlar. Rus olimlaridan A.A. Yelistratova, M.O. Mendelson, A.B. Gilenson, I.O. Mazirka, A.Krivitskiy, Y.K. Iordanidi yozuvchining amerika adabiyotidagi o'rnini, satirik mahoratini maxsus tadqiq qilishgan. M.Shorer [Schorer, 1961] V.Shin [Sheean, 1963] va R.Lingman [Lingeman,

2002] tomonidan yozilgan avtobiografik manbalar S.Lyuis haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

R.Fleming "Recent Research on Sinclair Lewis" [Fleming, 1985] (S.Lyuis bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar) nomli maqolasida S.Lyuis haqida 1978–1985-yillarda yozilgan ikkilamchi manbalar bibliografiyasini taqdim qilgan. Maqolada ijodkor haqidagi biografiyalar, xatlar va hujjatlar sanab o'tilgan. Mikrokomparativistika yo'nalishida adiblar ijodi qiyosiy tadqiq etilgan ishlar soni tobora ortib bormoqda. Yozuvchining falsafiy va ijtimoiy, demokratik qarashlari yondosh sohalarda qizg'in o'rganilayotganligi S.Lyuisning badiiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaganligidan darak beradi. Yozuvchining badiiy mahorati obrazlar poetikasi orqali tadqiq etilmaganligi mazkur dissertatsiyaning ahamiyatini oshiradi.

S.Lyuisning tibbiyot haqidagi qarashlari, xususan, "Errovsmit" romani qator ilmiy ishlarga, shu jumladan zamonaviy tibbiyot mutaxassislarining ham e'tiboriga sazovor bo'lgan. Ch.Rozenberg [Rosenberg, 1968], S.Mikels [Michels, 2017], H.Markel [Markel, 2001], G.Lav [Love, 1982], Hatchisson [Hutchisson & Pastore, 1999], M.Klarfeld [Clarfield, 2007], G.Briger [Brieger, 1982] kabi olimlarning ishlari romanning yangi talqinlariga sabab bo'lgan.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot jarayonida biografik, psixobiografik, tarixiy-qiyosiy, psixologik, psixoanaliz, intertekstual, tavsifiy-tahliliy metodlardan foydalanilgan. Ishni nazariy jihatdan yoritishda R.Spiller, K.Spenkeren, A.Habegger, N.Fray, R.Uellek, A.B. Gilenson, A.S. Mulyarchik, Y.N. Zasurskiy, A.M. Zverev, L.R. Pozdnyakov, A.S. Lixodziyevskiyning Amerika adabiyoti tarixi bo'yicha yozilgan asarlari ushbu tadqiqot uchun metodologik asos bo'ldi. O'zbek olimlaridan H.Boltaboyev, D.Quronov, U.Normatov, S.Mirzayev, S.To'laganovalarning realistik roman hamda badiiy obrazga doir ilmiy xulosalari mazkur maqolq uchun muhim manba bo'ldi. Poetikaga, xususan, badiiy obraz poetikasiga oid yangi ilmiy-nazariy manbalar sifatida, asosan, so'nggi yillarda tayyorlangan maqola, o'quv qo'llanma, monografiya va ilmiy ishlarga tayanildi. Psixologizm muammolarini ilmiy tadqiq etgan M.V. Xrapchenko, A.N. Andreyev, L.Y. Ginzburg, V.E. Xalizev, N.Leytes, Y.Etkind, V.Kavalyev, A.Yesin, V.Belyanin, V.Rudnyov, J.Fizer kabi olimlarning ishlariga murojaat qilindi.

Mazkur tadqiqot S.Lyuisning adabiy merosi hamda uning ijodiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda sifat (qualitative) tahlilga asoslangan adabiy sharh (review) metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqotning manba bazasini yozuvchining asosiy badiiy asarlari, xususan, "Main Street", "Babbitt" va "Arrowsmith" romanlari, shuningdek, uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan monografiyalar, ilmiy maqolalar, biografik tadqiqotlar hamda adabiy-tanqidiy ishlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida analitik metod yordamida S.Lyuis asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, ijtimoiy-tanqidiy qarashlari va realizm tamoyillari tahlil qilindi. Qiyosiy-tipologik metod orqali yozuvchi ijodiga doir turli ilmiy qarashlar o'zaro taqqoslandi va mavjud tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari aniqlandi. Tavsifiy metod yordamida esa S.Lyuis ijodining o'ziga xos jihatlari hamda uning Amerika realizmi

taraqqiyotiga qo'shgan hissasi yoritildi.

Shuningdek, biografik va psixobiografik metodlar yozuvchining hayotiy tajribasi bilan uning badiiy ijodi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda qo'llanildi. Tarixiy-qiyosiy metod asarlarda aks etgan ijtimoiy-madaniy muammolarni o'rganish va yozuvchining XX asr Amerika adabiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qildi. Psixologik va psixoanalitik yondashuvlar qahramonlar ruhiyati, shaxsiyat inqirozi hamda individual erkinlik masalalarini talqin etishga imkon berdi. Intertekstual tahlil esa S.Lyuis asarlarining boshqa adabiy va madaniy matnlar bilan aloqadorligini aniqlashda qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish, umumlashtirish va baholash asosida shakllantirildi.

NATIJALAR

S.Lyuis ijodi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni, nazarimizda, uch yirik guruhga tasniflash mumkin. Birinchi guruh tadqiqotlar S.Lyuisning *ijtimoiy mahoratiga* diqqat qaratib, yozuvchining jamiyat, tarix, siyosat, madaniyat haqidagi g'oyalarining badiiy ifodasiga e'tibor qaratgan. Ikkinchi guruh tadqiqotlarni umumiy lashtirib, S.Lyuisning *poetik mahorati* haqidagi ilmiy ishlar deb nomlash mumkin. Zero mazkur guruhdagi ishlar badiiylik bilan bog'liq qator tushunchalarni qamrab oladi. Jumladan, satira, xarakter yaratish mahorati, obrazlar tahlili, realizm kabi badiiy kategoriyalar S.Lyuis ijodi bo'yicha qayta-qayta o'rganilgan. S.Lyuisning *biografiyasiga oid tadqiqotlar* ham anchagina bo'lib, bu borada Sheldon Grebsteyinning ishi daslabki urinishdir.

S.Lyuisning, avvalo, ijtimoiyotchilik salohiyati yuqoriligidan kelib chiqib, uni "Jamiyatshunos adib" sifatida tadqiq etgan ishlar yuzaga keldi. Chunonchi, S.S. Konroy adibning jamiyat hayotini ilg'ashdagi salohiyatini yuksak baholab, uning "ijtimoiy tasavvurlari" ("sociological imagination") kengligini e'tirof etadi. S.S. Konroy [Conroy, 1966] S.Lyuis merosini uch davrga (1) 1920-yilgacha; 2) 1920-yillar; 3) 1930-yildan keyingi) bo'lib, ushbu davrlarda S.Lyuis Amerika madaniyatini qanchalar haqqoniy tasvirlay olganligini baholagan. Xususan, S.S. Konroyning ilmiy ishida "individuallik", "shaxsiy erk", "madaniyat", "jamiyat" kabi istilohlarga diqqat qaratilgan. Tadqiqotchining xulosa qilishicha, aynan 1920-yillarda yaratilgan romanlari Amerika jamiyatini, madaniy hayotini realistik bo'yoqlarda badiiy original tarzda ko'rsata olgan. S.Lyuisning adabiy merosida shaxs va jamiyat to'qnashuvi markaziy ahamiyatga ega hamda yozuvchi asarlarida shaxs erkini himoya qiladi, deya xulosa qiladi S.S. Konroy.

Shuningdek, S.Lyuisni "Tarixchi adib" degan nuqtayi nazardan yondashgan ilmiy ishda yozuvchining realizmda tarixiylik tamoyiliga amal qilishi, badiiy obrazlarning tipiklashtirilishidagi o'ziga xosliklar atroficha tahlil qilingan.

S.Lyuis badiiy salohiyatining antropologik jihatlariga urg'u bergan tadqiqot "Sinclair Lewis' liminal entities" ("Sinclair Lyuis asarlaridagi o'tish chegarasidagi obrazlar") deb nomlangan. Tadqiqotchi Bruks [Brooks, 1991] haqli ravishda S.Lyuisning ijodiy o'ziga xosligini hisobga olishni hamda uning ijodidan ijtimoiy hayotning tiyrak kuzatuvchisi bo'lganligiga ilmiy yondashish kerakligini ilgari suradi. Bruks, adib ijodi feminizm, marksizm va antropolog Viktor Turner qarashlari

perspektivasidan o'rganilishi sermahsul natijalarga olib borishiga ishonadi. Ta'kidlash joizki, Bruks "antropologik yondashuv" deganda yozuvchining asar yaratishga kirishish jarayonidagi katta manba yig'ish odatini emas, balki yozuvchi asarlaridagi shaxs va jamiyat ziddiyatlarining tasvirini ilmiy o'rganishni nazarga tutadi. Zotan, antropolog Viktor Turner ham ayni shu hodisalarni, shuningdek, shaxsning biror martabaga, yangi qiyofa yoki statusga o'tish holatlarini ("rites of passage") tadqiq etganiligi bilan mashhur. Bruksning kuzatishicha, S.Lyuisning barcha protagonistlari "rites of passage" ("bir holatdan ikkinchi holatga o'tish) tajribasini boshidan kechiradi. Masalan, Kerol turmushga chiqish munosabati bilan butunlay boshqa bir hayot tarziga o'tadi. Yoki Errousmi jamiyatdan uzlatga chekinadi. Tanlov oldidagi shaxs qattiq ikkilanadi, mana shu ikkilanish, arosatdagi holat antropolog Turnerning yozishicha, shaxsning keyingi hayoti uchun juda muhim. S.Lyuis qahramolari ko'p holda tanlovga duch keladi. "Arosat ("liminality") holati Lyuisga Amerika jamiyatidagi qator illatlarni, ikkiyuzlamachilik, soxtalikni fosh etishiga imkoniyat beradi", deya qayd etadi Brooks.

S.Lyuisning poetikasiga doir ilk ishlardan biri D.Duleyning "The Art of Sinclair Lewis" ("Sinkler Lyuisning badiiy mahorati") deb nomlanadi. Romannavisning xarakter yaratish mahorati Martin Layt tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Olim S.Lyuisning badiiy obrazlarini alohida fasllarda tasniflab o'rganganligi ahamiyatga ega. Jumladan, badiiy obrazlar "Personajlar (Minor Characterization)", "Pionerlar", "Isyonkor va nevrotik ayollar obrazlari", "Babbitlar va qalloblar", "Isyonkorlar" ("Eternal Doers") kabi guruhlarga bo'lingan. Bunday yondashuv oqilona bo'lib, tadqiqotchiga adib merosini tizimli o'rganishga hamda muallifning ko'p sonli badiiy populyatsiyasini panoramali ko'rsatishga imkoniyat bergan. S.Lyuis ijodi haqida aytilgan qator tanqidiy chiqishlarga to'xtalar ekan, Light shunday xulosa qiladi: "Hech kim Lyuisni tanqid qila turib, uning kuchli tomonlariga ko'z yuma olmaydi. Hech kim uning shuhratini hamda Amerika adabiyotini tanitish va ozod qilishdagi hissasini inkor etolmaydi" [Sorkin, 1972; 24].

S.Lyuisning ayol obrazlarini tahlil qilar ekan, A.L. Sadovskiy [Sadovskiy, 1977] uning ikki yo'l bilan obraz yaratishini e'tirof etadi: realistik yo'l bilan, bunda qahramonning kiyimlari, buyumlari, yashash xonasi kabilar u haqda kitobxonda yorqin tasavvur uyg'otadi. Ikkinchi yo'l hissiy bo'lib, yozuvchi qahramonning o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari haqida ma'lumot berib, obrazni gavdalantiradi. Sadovskiy yozuvchining 1914-1951 yillarda yaratgan barcha ayol obrazlarini "village wives" ("qishloq ayollari"), "city wives" ("shahar ayollari"), "destructive wives" ("johila ayollar"), "career women" ("tadbirkor ayollar"), "parasitic charmers" ("makkoralar"), "ideal wife" ("komila rafiq") kabi kategoriyalarga bo'lib o'rgangan.

D.Simkins maqolasida [Simkins, 2016] "Job" romani ofisda ishlaydigan ayollar haqidagi ilk to'laqonli roman", deya xulosa qiladi. S.Lyuisning "Job" romani nashr bo'lgunga qadar ham feminist ayollar obrazi, masalan, Genri Jeymsning "The Bostonians" ("Bostonliklar") romanida yoki epizodik ko'rinishda O.Genri hikoyalarida bo'lgan, biroq aynan "Job" romani Yangi Ayol obrazini to'laqonli xarakter sifatida aks ettirgan. Ayol yozuvchilardan esa, M.Ostin, E.Glasgov and V.Kater qator romanlari

bilan mashhur bo'lganlar. Ular ham ayol qahramon obrazi bo'lgan asarlar yaratganlar. Biroq ularning qahramonlari ham aksariyat hollarda an'anaviy fikrlovchi ayol obrazlar sifatida talqin etilganlar.

Shu kabi adib merosini san'at asari sifatida baholashga urg'u bergan ishlardan biri V.U. Cherniak [Cherniak, 1971] tomonidan olib borilgan "An Analysis of Main Street and its Relationship to Babbit, Arrowsmith, Elmer Gantry, and Dodsworth" ("Asosiy ko'cha" romanining "Bebbit", "Erosmit", "Elmer Gentry" va "Dodsvort" asarlariga aloqasi") nomli tadqiqotdir. Mazkur ishda tadqiqotchi Lyuisning obraz yaratish mahoratini o'rganar ekan, adibning "avval badiiy obrazlarni kitobxonga ta'riflaydi, so'ng harakatlari orqali ularni ko'rsatadi" degan fikrni ilgari surib, tadqiqotda 1920-yillarda yaratilgan besh roman misolida asoslaydi. V.U. Cherniakning qarashlariga ko'ra, "Main Street" ("Asosiy ko'cha") romani S.Lyuisning ijodida markaziy ahamiyatga ega bo'lgan hamda boshqa asarlarida, xususan, yigirmanchi yillarda yozilgan besh romanda qahramonlar, mavzular hamda boshqa badiiy elementlar takror aks etgan.

M.Layt S.Lyuis ijodida donkixotchilik ham adib dunyoqarashida, ham u yaratgan badiiy qahramonlar obrazlarida yaqqol namoyon bo'lganligini puxta dalillagan [Light, 1975]. Olimning haqli ravishda, fikrlashicha, S.Lyuis qahramonlari Servantesning Don Kixoti singari dunyoni o'z tasavvurlari prizmasidan ko'rishga moyil. M.Layt professor R.Predmorening donkixotlikka bergan tavsifidan kelib chiqib, S.Lyuis qahramonlarini mutolaa-sarguzasht-maftun bo'lish/sehrlanish (g'oyaga) formulasi asosida tahlilni amalga oshirgan. Ya'ni, M.Laytga ko'ra, avval qahramonlar romantik adabiyot ta'sirida shakllanadi, dunyoni shu tasavvurlarning proyeksiyasi sifatida qabul qiladi. So'ng shu g'oyalar yo'lida sarguzashtni boshidan kechiradi. Ideal go'yaning ta'siriga maftun bo'lishi ketidan illuziyasidan yiroq bo'lgan real voqelikka qarshi kurashadi.

Postmodernizm "Sinkler Lyuisni "renessansiga" guvoh bo'lmoqda" deb yozadi P.-V. Makkinnes [McInnes, 2005] "Surviving Modernity: Sinclair Lewis and the 1920s" ("Zamonaviy dunyoda yashab qolish: S.Lyuis va yigirmanchi yillar") nomli maqolasida. F.Ros va boshqa qator yozuvchilar avlodi S.Lyuisdan ta'sirlanganligi ham uni bugungi akademik adabiyotshunoslikka tez-tez eslatayotganligini qayd etadi P.-V. Makkinnes. S.Konroyning fikrlarini davom ettirgan holda P.-V. Makkinnes S.Lyuis asarlarida, qahramonlari misolida ilgari surilgan "desentralizatsiya" ("decentralisation") g'oyalarining ifodasini tahlil qilgan. Olimning yozishicha, zamonaviy dunyodagi shiddatli o'zgarishlar fonida shaxs o'zligini asrab qolishi uchun desentralizatsiya juda muhim. Ushbu tushuncha jarayon ichida bo'la turib, hissiy sovuqqonlikni saqlab qola olish, bir jumla bilan aytganda "xilvat dar anjuman" positsiyasi bilan ma'nodosh. S.Lyuis, xususan, Dodsvort obrazida aynan shu holatni aniq tasvirlay olganligini ta'kidlaydi S.Konroy: *"Avtonom shaxs muloqotga yopiq degani emas. U hissiy ihotalangan. U o'zini madaniyatidan hissiy ihotalaydi, biroq kognitiv jihatdan ular bilan birga...Dodsworth yaxshi inson, o'z jamiyati bag'riga yana qaytadi, biroq avtonomligicha bo'lib qolaveradi"* [Conroy, 1966; 65]. P.-V. Makkinnes ham S.Konroyning fikrini tasdiqlagan holda qayd etadi: "U (S.Lyuis

– A.A) autsayder bo‘lib, hodisalarning bo‘sag‘asida turishdek bir tizimni kashf qildiki, bu holat uning o‘z pozitsiyasining in‘ikosidir. S.Lyuis umrbod autsayder bo‘lib qolgan”.

S.Lyuisning har bir asari muayyan ijtimoiy voqea, yuzaga kelgan biror yangi hodisot zaminiga bunyod bo‘lgan. Shunga o‘xshash xulosani A.Kolman tadqiqotida ham kuzatish mumkin. Adibdagi noturg‘unlikning, o‘zgaruvchanlikning, ijodining turli davrlarida bir-biriga teskari qadriyatlarga urg‘u berganligini mohiyatini izohlar ekan, A.Kolman qiziq xulosaga keladi. Olimning yozishicha, S.Lyuisdagi beqarorlik aslida yuzaki taassurot. Bu xususiyatning kelib chiqishi shu bilan bog‘liqqi, muallif voqelikka loqayd bo‘la olmaydi. A.Kolman haqli ravishda e‘tirof etganidek, S.Lyuisning *reaksiyasi* voqelikka parallell ravishda yuzaga kelgan. 1920-yillarda babbizimni, tijoratlashtirishni tanqidiy fosh etgan yozuvchi 1934-yilda “Work of Art” (“San‘at asari”) asarida ijobiy bebbit obrazini yaratishi Buyuk Depressiyaning keskin qashshoqlik va ocharchilik ommaviy tus olgan pallada yozilganligini e‘tibordan qochirmaslik lozim. Ehtimol, Biznes olamini umidbaxsh kayfiyat bilan tasvirlagan adib xayollarida yurtining iqtisodiy tanazzul changalidan chiqish yo‘llarini sarhisob qilgan bo‘lsa ajab emas. Bunday badiiy yechim S.Lyuisning zamondoshlari J.Steynbek, E.Kolduel, J.Eyjining Depressiyaning tushkun kayfiyati aks etgan asarlaridan butunlay farqli.

A.Kolman tadqiqot ishida S.Lyuis poetikasining shakllanishida muhim rol o‘ynagan adiblarning, jumladan, G.Uells, B.Shou, H.Garland, T.Veblen, H.L. Menken g‘oyalarini batafsil qiyosan o‘rgangan. Olimning yozishicha S.Lyuisning ilk romanlaridan biri “Our Mr Wrenn” (“Bining janob Vren”) G.Uellsning “Kipps” va “The History of Mr.Polly” (“Polli xonimning hayoti”) asarlariga syujet jihatdan ham, g‘oyaviy tomondan ham o‘xshash. Bunday o‘xshashlikning ildizi, A.Kolmanning fikricha, mazkur romanlarning ijtimoiy tahlilda, obrazlarni satirik gavdalantirishda Ch.Dikkensga taqlidan yozilganligida.

“Elmer Gentry” (1927) asari M.Shorer tomonidan S.Lyuis ijodidagi eng “qahrli” asar deb baholangan. A.B. Gilensonning qayd etishicha, romandan olingan ommaviy taassurotni bomba portlashiga o‘xshatish mumkin. Darhaqiqat, roman amerika adabiyotidagi antiklerikal ruhdagi asarlarning eng ko‘p ijtimoiy rezonansga sabab bo‘lganidir. Xususan, asarning markazida Elmer Gentrdek aksilqahramon turishi, unga xos bo‘lgan, inson aqlini shoshirib qo‘yish darajasidagi bir-biriga zid xususiyatlar romanga “shovqinli shuhrat” olib kelgan. G.Blustoun Elmer Gentrini ulg‘aygan Geklberi Finga o‘xshatadi. M.Tvenning Geklberri Fin obrazi, darhaqiqat, amerika adabiyotida ko‘plab roman qahramonlariga prototip bo‘lgan.

“It Can’t Happen Here” (“Bizda bunday bo‘lmaydi (1935-y.) romani haqida I.Mazirkaning qayd etishicha, bu asar bilan S.Lyuis amerika adabiyotida antifashistik temani ochib berdi. Mazkur asar yaratilgan yillarda “Amerikadek demokratik jamiyatda fashizm hech qachon paydo bo‘lmaydi”, deya ishonch bilan gapiradiganlarga kinoya qilib, bu romanni S.Lyuis “It Can’t Happen Here”, ya’ni “Bizda bu mumkin emas”, – deb nomlaydi. Aslida esa, bu roman voqealari totalitar rejim, fashizm g‘oyalari har qanday jamiyatda tez fursatda urchib ketish ehtimoli borligini badiiy

manzaralashtiradi.

MUNOZARA

Amerika adabiyotshunosligida M.Layt tomonidan amalga oshirilgan “A Study of Characterization in Sinkler Lewis’s Fiction” (“S.Lyuisning qahramon yaratish mahorati”) hamda D.Duleyning “The Art of Sinclair Lewis” [Dooley, 1967] (“S.Lyuisning badiiy mahorati”) nomli dissertatsiyalari badiiy obrazlarga diqqat qaratganligi bilan mazkur ilmiy ishga yaqin. D.Duley S.Lyuisning ijodkor sifatidagi mahoratini, iste’dodini baholashda tarixiy-ijtimoiy tahlilga keng o’rin bergan. M.Layt esa tadqiqotida yozuvchining xarakter yaratish mahoratining asosiy omillarini, shu jumladan, badiiy sayoz obrazlarini ham biografik, psixobiografik metodga tayanib o’rgangan. Olimning tadqiqotda ilgari surgan fikri shundan iboratki, S.Lyuisning badiiy obrazlari muallifning o’z hissiy tajribasidan kelib chiqqanligi bilan muvaffaqiyatli chiqqan. S.Lyuis yaratgan obrazlar maxsus o’rganilgan yuqoridagi ishlarda asarlarning immanent-estetik tahliliga yetarlicha yondashilmagani aniqlandi. Shuningdek, realistik obrazlarning badiiy psixologizmi masalalari olimlarning nazaridan chetda qolgan.

Sobiq Sovet adabiyotshunosligida S.Lyuisning ijodi realist va satirik yo’nalishda talqin etilib, tadqiqotlarda adib haqida qimmatli ma’lumotlar yoritilgan. Jumladan, A.B. Gilensonning “Америка Синклера Льюиса” (“S.Lyuis Amerikasi”) nomli monografiyasi adibning barcha romanlarini chuqur ijtimoiy-tarixiy, madaniy tahlil qilinishi bilan ajralib turadi. A.B. Gilenson diqqatini 1920-yillarda yaratilgan romanlarga qaratgan bo’lsa, O.Mazirka ilmiy ishida obyekt sifatida adibning 1930-1940-yillardagi asarlarini tanlagan. M.O. Mendelson va E.K. Iordanidi esa S.Lyuisning fashizm hamda irqchilikni satira vositasida fosh qilish mahoratiga maxsus to’xtalganlar. Biroq 1990-yilgacha yozilgan qator ilmiy ishlarda S.Lyuis ijodi sotsrealizm doirasida talqin etilib, tadqiqotchilarning izlanishlari davr mafkurasining kuchli ta’siriga bo’ysunganini qayd etish mumkin.

S.Lyuis qahramonlari shaxsini psixologik va lingvistik xususiyatlarini I.O. Mazirka “Психолингвистические основы вербальной характеристики личности и языковой картины мира героев художественной литературы” [Mazirka, 2008] (“Badiiy adabiyot qahramonlarining shaxs verbal tavsifi va lisoniy dunyo manzarasining psixolingvistik asoslari”) nomli tadqiqotida tahlilga tortgan. Olima muallif va adabiy qahramon orasida o’zaro ruhiy uyg’unlik mavjudligini e’tirof etgan hamda ijodkor shaxsining badiiy asardagi ifodasini lingvistik jihatdan o’rgangan. Shuningdek, badiiy obrazlarni shaxs strukturasi bo’yicha tahlil qilib, obrazlar ruhiyatida aks etgan biologik, ijtimoiy va biosotsial determinantlarni, xarakter aksentuatsiyasini qator asarlar, jumladan, S.Lyuis romanlari misolida ham tadqiq etgan.

S.Lyuisning ayol obrazlari haqida qator ilmiy ishlar mavjud bo’lsa-da, ularda muallifning feminizm va sufragizm g’oyalari batafsil ochib berilmagan. D.Simpkins “Sinclair Lewis: Suffragent” (“S.Lyuis-suffrajist”) maqolasida muallifning biografiyasida mazkur g’oyalarni shakllantirgan omillarni dalillash bilan cheklangan.

Maglin, Nan Bauer “Women in Three Sinclair Lewis Novels” (S.Lyuisning uch romanida ayollar obrazlari”) nomli maqolasida asarlarning ijtimoiy kontekst bilan aloqasi, hujjatlilik darajasi diqqat markazida boʻlgan. Yozuvchining feministik qarashlari va ularning badiiy ifodasi, ijodkorning ayol protagonist psixologizmini yaratish mahorati monografik planda oʻrganilmaganligi mazkur masalaga eʼtibor qaratish uchun asos boʻldi. Amerika adabiyotiga mansub gender va feminizmga oid ilmiy manbalarga murojaat qilindi.

S.Lyuisning badiiy obrazlari psixoanalitik tahlilga deyarli tortilmagan. Faqat bir maqola doirasida Bebbit obrazini psixoanaliz prizmasi orqali baholashga intilish boʻlgan. Morfield, R.Kennet “Searching for the fairy child: A psychoanalytic study of Babbitt” (“Sehrli bola izidan: Babbitt romanining psixoanalitik tadqiqi”) maqolasida mazkur obrazni Zigmund Freyd qarashlariga asoslanib tahlil qilgan. Bizning tahlil R.Kennet gʻoyalarini izchil davom ettiradi hamda K.Yung, E.Frommning individuatsiya, ruhiy inflyatsiya, narsissizm haqidagi taʼlimotlariga tayangan holda muammoni yangicha aspektda koʻrib chiqadi. Tadqiqotimizda S.Lyuisning boshqa aksilqahramonlari, Elmer Gentry, Gideon Plinsh, Bez Uindrip ham psixologik va psixoanalitik tahlilga tortilganligi asarlardagi maʼno qatlamlarini teran ochilishiga imkon beradi. Realistik obrazlarni aksentuatsiya hodisasi va shaxs tipologiyasi asosida oʻrganish zamonaviy adabiyotshunoslikda yangicha yondashuv hisoblanadi. S.Lyuisning asarlari ushbu nuqtayi nazardan hozirga qadar oʻrganilmagan.

Nazarimizda, S.Lyuis ijodida realizm va romantizm sintezining yorqin ifodasi adibning real voqelik va ideal tasavvurlari toʻqnashivining mahsulidir. Adib poetikasining ushbu jihatiga Duley, F.Karpenter tadqiqotlarida maxsus toʻxtalganlar, biroq ular S.Lyuis ijodining bu xususiyatini boshqacha izohlaganlar. Jumladan, F.Karpenter “Sinclair Lewis and the Fortress of Reality” (“Sinkler Lyuis va Realizm qoʻrgʻoni” – tarj. A.A.) nomli maqolasida [Carpenter, 1955] S.Lyuis realizmining yutugʻi nimada ekanligi hamda adibning 1930 yillardan keyingi asarlarining muvaffaqiyatsizligi sabablarini tahlil qiladi. Muallifning fikricha, S. Lyuis shaxsining romantikligi, dastlabki asarlarida yuksak insoniy qadriyatlarni ulugʻlashi uning ijodiga joziba bagʻishlagan. Biroq vaqt oʻtishi bilan S.Lyuisning oʻzi ijodkor sifatida ilgari satira orqali fosh qilgan reallikka singib boradi. Uning ilk qahramonlari Karol Kennikot (“Asosiy koʻcha”), Bebbit (“Bebbit”) alaloqibat oʻzi mansub boʻlgan reallikka boʻysungan boʻlsa-da, orzularidan yuz oʻgirmagan. Faqat Martin Erousmitga muallif butunlay erkinlik beradi, uni tanqid qilingan reallikdan uzilishiga qoʻyib beradi. F.Karpenterning fikricha, shu nuqtayi nazardan “Erousmit” – S.Lyuisning ideallari yorqin namoyon boʻlgan va zafar qozongan yagona asari. Mazkur asardan soʻng S.Lyuisning barcha qahramonlari yoki “realizm qoʻrgʻoniga qaytdi yoki magʻlub boʻldi” [Carpenter, 1955; 421]. Maqola muallifining xulosasi shuki, Lyuisning asarlari borgan sari reallashib, oldingi ideal qadriyatlardan uzoqlashdi, natijada ular avvalgi jozibasini yoʻqotdi. “Keyingi asarlarda S.Lyuis idealizm va romantizmdan xoli, sof amerikanacha reallikni aks ettirish yoʻlidan bordi” [Carpenter, 1955; 421].

T.Shafferning “The Professional Ethics of Individualism and Tragedy in Martin Arrowsmith’s Expedition to St Hubert” [Shaffer, 1989] (“Yakka shaxsning kasbiy

axloqi hamda Martin Erousmithning Sent Guver oroliga fojiaaviy sayohati” – tarj. A.A.) nomli maqolasida “Arrowsmith” romani kasb va axloq mavzusi doirasida talqin qilingan. Olimning e’tiroficha, S.Lyuis mazkur asarida individualizmni yuksak qadriyat sifatida badiiy aks ettirgan. Martin turli ijtimoiy tuzilmalarda erkin faoliyat olib boradi, mansab pillapoyalaridan ko’tarilishida yolg’iz harakatlanadi. S.Lyuis qahramoni voqealar silsilasida yakka holda namoyon bo’ladiki, bu orqali Shaffer yozuvchi individualizmning afzalliklarini yoqlaydi, degan xulosaga keladi.

Shu o’rinda aytish joizki, S.Lyuisning ismlarga badiiy ma’no yuklashida ingliz adibi Ch.Dikkensga xos uslub seziladi. R.Kordning [Coard, 1962] S.Lyuis ijodida ism tanlash priyomlariga bag’ishlangan maqolasida ta’kidlanganidek, “Arrowsmith” romaniga nom tanlash qizg’in jarayon bo’lgan: asarga *Barbarian* (“Varvar” – tarj. A.A.), *Courage* (“Jasorat”), *Horizon* (“Ufq”), *The Merry Death* (“Farahbaxsh o’lim”), *The Savage* (“Yovvoyi”), *The Shadow of Max Gottlieb* (“Gotlibning soyasi”) kabi “nomzodlar” bo’lgan. Asarning “Martin Arrowsmith” deb nomlanmasligiga sabab, Kordning izohlashicha, ushbu nomning “Martin Chuzzlewit” yoki “Martin Eden” romanlarini yodga solishi bilan bog’liq.

I.Lovining “Martin Arrowsmith’s Clinical Trials, Scientific Precision and Heroic Medicine” (“Martin Erousmithning klinik tadqiqotlari, ilmiy aniqlik va tibbiyotda qahramonlik” – tarj. A.A.) [Lowy, 2010] nomli maqolasida “Arrowsmith” romanining yechimiga tibbiy tadqiqot metodlari nuqtayi nazaridan yondashiladi. Olimaning fikricha, Martinning o’rmonga chekinishi o’sha davrda tibbiy tadqiqotlarda qo’llanilayotgan usullarni rad etishni ifodalaydi. Loviga ko’ra, romanga o’n to’qqizinchi asr o’rtalarida keng yoyilgan “davolash nigilizmi” (therapeutic nihilism – izoh. A.A.) g’oyalari S. Lyuis va u bilan hamkorlik qilgan P.Kryuiga ta’sir ko’rsatgan.

R.Spiller [Spiller, 1974; 46] Amerika tarixining ushbu davrini badiiy aks ettirgan romanga quyidagicha ta’rif beradi: “Erousmi” idealizmning moddiyunchilik ustidan g’alabasini tarannum etuvchi, fan haqidagi sara asarlarning peshqadamidir. Goho satirik, goho nohaq tuyulsa-da, ijtimoiy solnoma misoli sahih ma’lumotga boy” (– tarj. A.A.). Burjua tanqidchisi sifatida S.Lyuis moddiyunchilikning jamiyat ma’naviyati va ruhiyatiga yetkazayotgan salbiy oqibatlarini nafaqat ilg’aydi, balki unda ushbu ma’naviy tanazzulni badiiy aks ettirish ehtiyoji tug’ildi. Moddiy boylikning ko’payishi ma’naviy boylik bilan teng emasligi, aksincha, jamiyatda axloqsizlik, e’tiqodsizlik va shu kabi boshqa xatarli illatlarning paydo bo’layotganini S.Lyuis faylasufona zakiylik bilan ilg’ab, obrazli ifoda etadi. S.Lyuis o’zi tilga olayotgan muammolarga – ommaviy moddiyunchilik kayfiyatiga, materializmning salbiy oqibatlariga qarshi halollikka, insonparvarlikka asoslangan ma’naviy qadriyatlarni qarshi qo’yadi. S.Lyuisning “Erousmi” romanida markaziy g’oyalardan biri yosh olimning o’z haqiqatini topish yo’lidagi izlanishlari ekani aksariyat tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan. Jumladan, T.K.Vipl tanqidiy maqolasida, “Arrowsmith” romani faqat tibbiyot olamini fosh etishga qaratilgan emas, balki butun Amerika jamiyatini mo’ljalga oladi. Roman kimyogar, iqtisodchi, tarixchi, faylasuf yoki ilohiyotshunos bo’lishidan qat’iy nazar, umuman, olimlar va haqiqat izlovchilar haqida hikoya qiladi”, – deb ta’rif beradi. S.Lyuis biografiyasiga doir qator asarlar muallifi M.Shorer “Erousmi” romani haqida

to'xtalar ekan, adibning ilgarigi asarlariga nisbatan syujetni ancha ixcham va puxta qurganligini ta'kidlaydi. "Biroq asarning muvaffaqiyati faqat shu bilan belgilanmaydi. Roman Amerika adabiyotida butunlay yangi mavzuni boshlab berdi. "Erousmit" xolislik, fidoyilik bilan haqiqatni qidirish kabi ma'naviy g'oyaga asoslanishi bilan birgalikda, bosh qahramonga o'zining ma'naviy ideallariga erishishga imkon beradi. Qahramon shiddatli kurashda g'olib chiqadiki, bunday kurashda "Asosiy ko'cha" va "Bebbit" qahramonlari mag'lub bo'lgan edi", – deb qayd etadi.

Martin Bukoning "Mark Twain in Sinclair Lewis" ("Sinkler Lyuisda Mark Tven qiyofasi" – tarj. A.A.) nomli maqolasida ta'kidlanishicha, S.Lyuis ijodida M.Tvenning ta'siri kuchli bo'lgan. Yozuvchi Nobel ma'ruzasida ham M.Tvenni ehtirom bilan tilga oladi. M.Bukoning yozishicha, S.Lyuisning yigirma ikki romanidan sakkiztasida M.Tven asarlariga havolalar uchraydi. Xususan, ushbu ta'sir til bilan bog'liqligini tasdiqlab, Buko quyidagi xulosaga kelgan: "Yosh yozuvchi M.Tvendan romantik hissiyotlarni aks ettirishni, tanqidiy baholashni, qoloqlikni karikatura qilishni, riyokorlikni kinoya orqali fosh etishni hamda jonli tilga taqlid qilish sirlarini o'zlashtirdi" [Bucco, 1999; 88].

"It can't Happen Here" ("Bizda bunday bo'lmaydi") romanning markaziy qahramoni, Bez Undripga antagonistik obraz bo'lgan oltmish yoshli Dormes Djessep "Daily Informer" gazetasi rahbari va muharriri. Oilasi bag'rida, osudalikda, ko'pincha o'z kabinetida mutolaa bilan band. Mazkur qahramon haqida R.Lingeman shunday qayd etadi: "Dormes Djessep obrazi boshqa barcha roman qahramonlari ichida Lyuisning alter egosi sifatida ajralib turadi. Chindan ham, ko'p jihatlari bilan Dormes muallifning olam va odam, ezgulik, haqiqat to'g'risidagi falsafasini o'zida mujassamlashtirgan.

A.Kolemanning haqli ravishda e'tiroficha, ushbu asarda S.Lyuisning ijtimoiy-falsafiy qarashlari yetuklashgan. Dormes Djessepning ichki ruhiyati tasvirida, boshqa qahramonlar bilan suhbatlarida muallif o'z qarashlarini ham ifodalagani ayon. "Mukammal ijtimoiy formatsiyaga erishib bo'lmaydi". "Tarix haqida o'ylaganim sayin, – deb fikrlaydi u, – men dunyoda qadrlı bo'lgan hamma narsa erkin, izlanuvchan, tanqidiy ruh orqali amalga oshirilganiga amin bo'ldim. Ijtimoiy tuzum qanday bo'lishidan qat'iy nazar mana shu ruhni saqlash juda muhimdir. Ammo aqidaparastlar va vahshiylar ilm-fan ahlini yo'q qilishga va ularning ovozi abadiy o'chirishga qodir".

R.Lingman ta'kidlaganidek, Dormes obrazi S.Lyuisning tom ma'noda alter egosi. Asar yaratilgan tarixiy davr haqiqat uchun jasorat ko'rsatishni talab qiladigan qaltis vaziyat edi. "Bizda bunday bo'lmaydi" romani 1935-yilda yozilganligi hisobga olinsa, darhaqiqat, dunyo "kulrang vabo" kulfati bo'sag'asida turganligini muallif mantiqan idrok etib, badiiy obrazlar vositasida bashorat qila olganligi ayon bo'ladi hamda S.Lyuis ushbu bashoratni fikr ahllariga etkazish uchun go'zal badiiy shakl va eng asosiysi, JASORAT topa olgan. Axir asar chop etilgan qaltis davrda AQSHning fashizmni qo'llab-quvvatlayotgan katta biznes vakillari yoxud Yevropa dohiylari bir ijodkorning isyonini "bostirishlarining" ehtimoli katta edi. Aynan shuning uchun Gollivud rejissorlari asarni ekranlashtirishdan qo'rqib, bosh tortgan edi. Biroq S.Lyuis

nafaqat chekinmadi, balki asarni ssenariysini yozib teatrlarda namoyish etilishiga jonbozlik ko'rsatdi. Hatto Dormes Djessep rolini o'zi ijro etdi.

Adibning so'nggi asarlaridan biri "Godseeker" ("Tangrini izlab") tarixiy roman bo'lib, muallifning sevimli mavzusi – chegara ko'chkinchilari haqida. Gilensonning qayd etishicha muallif Amerikada liberallar faoliyati tarixiga oid trilogiya yozishni maqsad qilgan, mazkur roman shu niyat bilan yuzaga chiqqan. Roman, aytish joizki, S.Lyuis keksayib, bir qator xastaliklardan qiynalayotgan, tushkunlik bilan olishib, Yevropaga tez-tez safar qilayotgan bir pallada yozilgan. Garchi roman ijobiy e'tirofga sabab bo'lmagan esa-da, mazkur asar qahramoni obrazida S.Lyuisning xarakter yaratishidagi xususiyatlar aniq yuzaga chiqqan. Misol uchun, ayniqsa, Aaron Gaad obrazida adibning badiiy obrazda realizm va romantizmni sentezlashi yaqqol ko'zga tashlanadi. I.Mazirka asosli ravishda Aaron va Selena "ideallashgan obrazlar" deb baho beradi. Sababi, garchi roman tarixiy mavzudagi realistik janrda bo'lsa-da, obrazdagi ulug'vorlikning kuchaytirilganligi, ko'tarinki pafos uni romantik qahramonlarga monand qiladi. Muallifning mazkur romanni yozishida Amerika adabiyotida romantizmning otasi Fenimor Kuperning qahramonlariga o'xshashligi kuzatiladi. Adib Kuper nomini ham asarda bir necha bor tilga oladi.

M.Layt S.Lyuis ijodida donkixotchilik ham adib dunyoqarashida, ham u yaratgan badiiy qahramonlar obrazlarida yaqqol namoyon bo'lganligini puxta dalillagan. Olimning haqli ravishda, fikrlashicha, S.Lyuis qahramonlari Servantesning Don Kixoti singari dunyoni o'z tasavvurlari prizmasidan ko'rishga moyil. M.Layt professor Richard Predmorening donkixotlikka bergan tavsifidan kelib chiqib, S.Lyuis qahramonlarini mutolaa-sarguzasht-maftun bo'lish/sehrlanish (g'oyaga) formulasi asosida tahlilni amalga oshirgan. Ya'ni, M.Laytga ko'ra, avval qahramonlar romantik adabiyot ta'sirida shakllanadi, dunyoni shu tasavvurlarning proyeksiyasi sifatida qabul qiladi. So'ng shu g'oyalar yo'lida sarguzashtni boshidan kechiradi. Ideal go'yaning ta'siriga maftun bo'lishi ketidan illuziyasidan yiroq bo'lgan real voqelikka qarshi kurashadi.

S.Lyuisning badiiy obraz yaratish mahorati bir-biridan farqli, ayrim hollarda kuchli munozarali ilmiy tadqiqotlarni yuzaga keltirgan. Bu albatta, muallif ijodining tarixiy-biografik omillari bilan chambarchas bog'liq. Sinkler Lyuisning qizg'in ijod yillari ikki jahon urushi oralig'idagi davrda kechdi. 1920–1930 yillardagi Amerika adabiy muhitini A.M. Zverev quyidagicha tasvirlaydi: "Bu yirik ijtimoiy siljishlar kuchlar muvozanatini o'rin almashtirgan, millionlab odamlarning dunyoqarashini o'zgartirgan davr bo'ldi" [Zverev, 1982]. XX asr boshida AQSh iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikning yangi bosqichiga ko'tarildi. Sanoatlashuv va urbanizatsiya, immigratsiya oqimi Amerika jamiyatining taraqqiyot sur'atini mislsiz tezlashtirdi. Iqtisodiy va demografik o'zgarishlar milliy qadriyatlarga ta'sir etmay qolmadi, yangi muhit yangicha ijtimoiy-madaniy tafakkur tarzini shakllantirdi. Mavjud adabiyotlar tahlili adibning o'tgan asr 20-yillaridagi faoliyatiga alohida urg'u beradi, chunki aynan ushbu o'n yillikda uning realistik konsepsiyasi xalqaro adabiyotshunoslik tomonidan yuksak baholangan edi.

Garchi muallifning 1930-yillardagi asarlari adabiy jamoatchilik tomonidan

ijobiy retseptsiya qilingan bo'lsa-da, mazkur dekadada ijtimoiy diskurs o'zgardi. Buyuk Depressiyaning sotsiomadaniy oqibatlarini badiiy ifodalashda J.Steynbek, J.D. Passos, E.Kolduell va E.Xeminguey kabi adiblar o'zlarining fundamental asarlari bilan adabiy jarayonning markaziy figuralariga aylanishdi. Biroq 20-yillardagi asarlarining 30-yillarda ekranlashtirilishi S.Lyuisga shuhrat olib kelishda salmoqli rol o'ynagan. 40-yillarga borib, S.Lyuis badiiy saviyasi ilgarigidek yuqori bo'lmagan asarlar yaratganligi haqidagi fikrlar mutaxassislar va jamoatchilik tomonidan tez-tez aytilgan. S.Lyuis 1951-yil vafot etish arafasida yozuvchi sifatida anchayin unutilgan, asarlarining badiiy jozibasi so'roq ostiga olingan edi. 1950-60-yillardagi tanqidchilik S.Lyuis merosiga shafqat qilmasdan, o'tkir tanqidchilik nigohi bilan qaradi. Bunday munosabatni ayrim mutaxassislar ilmiy faoliyati yanada kuchaytirdi. Xususan, M.Shorer S.Lyuisning biografi M.Shorer adib hayoti va ijodini o'n yil davomida o'rganib, deyarli to'qqiz yuz betli tadqiqot yozib, "Ehtimol Lyuisning romanlarini san'at asari demasa ham bo'lar" [Shorer, 1965, 355] deya noo'rin, hatto tadqiqotchi-biograf etikasiga to'g'ri kelmaydigan tanqidiy fikrlarni bildirgan. S.Lyuis ijodini salbiy baholashda tashabbus ko'rsatgan M.Shorerni qo'llab-quvvatlagan qator adabiyotshunos mutaxassislar, tadqiqotchilar adibning merosini badiiy qadrsizlantirishda faol harakat qildilar. Boshqa tomondan esa, bunday "antireklama" adib ijodini o'rganishni istovchilarni qiziqirishda davom etdi.

XULOSA

S.Lyuis adabiy merosiga doir ilmiy tadqiqotlarni uch yirik guruhga tasniflash mumkin: 1) adibning ijtimoiy mahorati o'rganilgan ishlar; 2) yozuvchining poetik mahorati tadqiq etilgan ishlar; 3) biografik va bibliografik tadqiqotlar guruhi.

Nega S.Lyuisning Amerika adabiyotidagi o'rni barqaror bo'lmagan? S.Lyuis ijodini postmodern, texnotron yigirma birinchi asr qanday qabul qilmoqda? S.Lyuis asarlariga qiziqishning jonlanganiga sabab nima? Bunday savollar ortidan qilingan qator ilmiy ishlardan shuni anglash mumkinki, S.Lyuis poetikasi uchun real borliq asosiy obyekt bo'lgan. Voqelikni mikrodettallar darajasida fotografik rekonstruksiya qilishda S.Lyuisning sotsiomadaniy kompetensiyasi va antropologik tahlil salohiyati belgilovchi rol o'ynadi. Adib ulkan faktlar massivini satirik elementlar va chuqur refleksiya uyg'otuvchi ohorli syujet arxitektonikasiga ko'chira oldi. Akademik estetizmdan yiroq bo'lgan yozuvchi uchun empirik borliqning o'zi bosh badiiy-estetik nizom vazifasini o'tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brieger, G.H. (1982). Arrowsmith and the history of medicine in America. *Mobius*, 2, 32–38.
2. Bucco, M. (1999). Mark Twain in Sinclair Lewis. *American Literary Realism*, 31(3), 88–91.
3. Dooley, D.J. (1967). *The art of Sinclair Lewis*. Lincoln: University of Nebraska Press.
4. Fisher, J. (1986). Sinclair Lewis and the diagnostic novel: *Main Street* and *Babbitt*. *Journal of American Studies*, 20(3), 421–433.
5. Fleming, R.E. (1985). Recent research on Sinclair Lewis. *Modern Fiction Studies*, 31(3), 609–616.
6. Grebstein, S.N. (1962). *Sinclair Lewis*. New York: Twayne Publishers.
7. Helleberg, M.M. (1968). The paper-doll characters of Sinclair Lewis' *Arrowsmith*. *Mark*

- Twain Journal*, 14(2), 17–21.
8. Hutchisson, J.M., & Pastore, S.R. (1999). Sinclair Lewis and Theodore Dreiser: New letters and a reexamination of their relationship. *American Literary Realism*, 32(1), 69–81.
 9. Carpenter, F.I. (1955). Sinclair Lewis and the fortress of reality. *College English*, 16(7), 416–423.
 10. Clarfield, M. (2007). Novel medicine: Arrowsmith. *Journal of the Royal Society of Medicine*, 100, 286.
 11. Coard, L.R. (1962). Names in the fiction of Sinclair Lewis. *The Georgia Review*, 16(3), 318–329.
 12. Coard, L.R. (1985). Edith Wharton's influence on Sinclair Lewis. *Modern Fiction Studies*, 31(3), 511–527.
 13. Conroy, S.S. (1966). *The American culture and the individual in the novels of Sinclair Lewis* (Doctoral dissertation). University of Iowa.
 14. Light, M. (1975). *The quixotic vision of Sinclair Lewis*. West Lafayette: Purdue University Press.
 15. Lingeman, R. (2002). *Sinclair Lewis: Rebel from Main Street*. New York: Random House.
 16. Love, G.A. (1982). *New Americans: The Westerner and the modern experience in the American novel*. Lewisburg: Bucknell University Press.
 17. Löwy, I. (2010). Martin Arrowsmith's clinical trials, scientific precision and heroic medicine. *Journal of the Royal Society of Medicine*.
 18. Markel, H. (2001). Reflections on Sinclair Lewis's *Arrowsmith*: The great American novel of public health and medicine. *Public Health Reports*, 116, 371–375.
 19. McInnes, P.-V. (2005). Surviving modernity: Sinclair Lewis and the 1920s. *eSharp: Journeys of Discovery*, 4, 1–15.
 20. Michels, S. (2017). *Sinclair Lewis and American democracy*. Lanham: Lexington Books.
 21. Rosenberg, C. (1968). Martin Arrowsmith: The scientist as hero. In *Twentieth century interpretations*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
 22. Schorer, M. (1961). *Sinclair Lewis: An American life*. New York: McGraw-Hill.
 23. Simpkins, D. (2015–2016). Sinclair Lewis: Suffragent. *Minnesota History*, 330–336.
 24. Sodowsky, A.L. (1977). *Images of women in the novels of Sinclair Lewis* (Doctoral dissertation). Oklahoma State University.
 25. Sorkin, A.J. (1972). *Booth Tarkington and Sinclair Lewis: Two realists as social historians* (Doctoral dissertation). University of North Carolina at Chapel Hill.
 26. Zverev, A.M. (1982). *Amerikanskiy roman 20–30-kh godov*. Moskva: Khudozhestvennaya literatura.
 27. Shaffer, L.T. (1989). The professional ethics of individualism and tragedy in Martin Arrowsmith's expedition to St. Hubert. *Missouri Law Review*, 54(2), 259–277.
 28. Sheean, V. (1963). *Dorothy and Red*. Boston: Houghton Mifflin.
 29. Sherman, S.P. (1925). A way out: Sinclair Lewis discovers a hero. *The New York Tribune*, 1–2.
 30. Cherniak, W.U. (1971). *An analysis of Main Street and its relationship to Babbitt, Arrowsmith, Elmer Gantry, and Dodsworth* (Doctoral dissertation). University of Michigan.

REFERENCES

1. Brieger, G.H. (1982). Arrowsmith and the history of medicine in America. *Mobius*, 2, 32–38.
2. Bucco, M. (1999). Mark Twain in Sinclair Lewis. *American Literary Realism*, 31(3), 88–91.
3. Carpenter, F.I. (1955). Sinclair Lewis and the fortress of reality. *College English*, 16(7), 416–423.
4. Cherniak, W.U. (1971). *An analysis of Main Street and its relationship to Babbitt, Arrowsmith, Elmer Gantry, and Dodsworth* (Doctoral dissertation). University of Michigan.
5. Clarfield, M. (2007). Novel medicine: Arrowsmith. *Journal of the Royal Society of*

- Medicine*, 100, 286.
6. Coard, L.R. (1962). Names in the fiction of Sinclair Lewis. *The Georgia Review*, 16(3), 318–329.
 7. Coard, L.R. (1985). Edith Wharton's influence on Sinclair Lewis. *Modern Fiction Studies*, 31(3), 511–527.
 8. Conroy, S.S. (1966). *The American culture and the individual in the novels of Sinclair Lewis* (Doctoral dissertation). University of Iowa.
 9. Dooley, D.J. (1967). *The Art of Sinclair Lewis*. Lincoln: University of Nebraska Press.
 10. Fisher, J. (1986). Sinclair Lewis and the diagnostic novel: *Main Street* and *Babbitt*. *Journal of American Studies*, 20(3), 421–433.
 11. Fleming, R.E. (1985). Recent research on Sinclair Lewis. *Modern Fiction Studies*, 31(3), 609–616.
 12. Grebstein, S.N. (1962). *Sinclair Lewis*. New York: Twayne Publishers.
 13. Helleberg, M.M. (1968). The paper-doll characters of Sinclair Lewis's *Arrowsmith*. *Mark Twain Journal*, 14(2), 17–21.
 14. Hutchisson, J.M., & Pastore, S.R. (1999). Sinclair Lewis and Theodore Dreiser: New letters and a reexamination of their relationship. *American Literary Realism*, 32(1), 69–81.
 15. Light, M. (1975). *The Quixotic Vision of Sinclair Lewis*. West Lafayette: Purdue University Press.
 16. Lingeman, R. (2002). *Sinclair Lewis: Rebel from Main Street*. New York: Random House.
 17. Love, G.A. (1982). *New Americans: The Westerner and the Modern Experience in the American Novel*. Lewisburg: Bucknell University Press.
 18. Löwy, I. (2010). Martin Arrowsmith's clinical trials, scientific precision and heroic medicine. *Journal of the Royal Society of Medicine*.
 19. Markel, H. (2001). Reflections on Sinclair Lewis's *Arrowsmith*: The great American novel of public health and medicine. *Public Health Reports*, 116, 371–375.
 20. McInnes, P.-V. (2005). Surviving modernity: Sinclair Lewis and the 1920s. *eSharp: Journeys of Discovery*, 4, 1–15.
 21. Michels, S. (2017). *Sinclair Lewis and American Democracy*. Lanham: Lexington Books.
 22. Rosenberg, C. (1968). Martin Arrowsmith: The scientist as hero. In *Twentieth Century Interpretations*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
 23. Schorer, M. (1961). *Sinclair Lewis: An American Life*. New York: McGraw-Hill.
 24. Shaffer, L.T. (1989). The professional ethics of individualism and tragedy in Martin Arrowsmith's expedition to St. Hubert. *Missouri Law Review*, 54(2), 259–277.
 25. Sheean, V. (1963). *Dorothy and Red*. Boston: Houghton Mifflin.
 26. Sherman, S.P. (1925). A way out: Sinclair Lewis discovers a hero. *The New York Tribune*, 1–2.
 27. Simpkins, D. (2015–2016). Sinclair Lewis: Suffragent. *Minnesota History*, 330–336.
 28. Sodowsky, A.L. (1977). *Images of Women in the Novels of Sinclair Lewis* (Doctoral dissertation). Oklahoma State University.
 29. Sorkin, A.J. (1972). *Booth Tarkington and Sinclair Lewis: Two Realists as Social Historians* (Doctoral dissertation). University of North Carolina at Chapel Hill.
 30. Zverev, A.M. (1982). *The American Novel of the 1920s–1930s*. Moscow: Fiction Literature.